

TARIX

1. Quyidagi qaysi voqea Rossiya imperatori Nikolay II hukmronligi davriga to'g'ri keladi?
 - A) Rossiyaning birinchi jahon urushidan chiqishi
 - B) Uchlar ittifoqining tashkil topishi
 - C) birinchi jahon urushining tugashi
 - D) birinchi jahon urushining boshlanishi
2. Quyidagi qaysi davlat XXI asr boshida Kopengagenda (Daniya) bo'lib o'tgan uchrashuvda Yevropa Ittifoqiga qabul qilingan?
 - A) Belgiya
 - B) Italiya
 - C) Chexiya
 - D) Fransiya
3. Qadimgi Hindistonda to'rt varna(kasta)ga kirmagan aholi toifasini aniqlang.
 - A) braxmanlar
 - B) shudra
 - C) chandal
 - D) kshatriy
4. Quyida sanab o'tilganlardan qaysilari Amerika burjua inqilobi davriga aloqador emas?
 - 1) "Uchlar ittifoqi";
 - 2) Parij sulhi;
 - 3) "Iyul monarxiyasi";
 - 4) "Mustaqillik Deklaratsiyasi";
 - 5) "Muqaddas ittifoq";
 - 6) "Ikkinchi Qit'a Kongressi"
 - A) 2, 3, 5
 - B) 1, 3, 5
 - C) 1, 4, 6
 - D) 2, 4, 6
5. Somoniylar davlati ravnaq topgan davrda uning tarkibiga kirgan hududlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
 - 1) Movarounnahr;
 - 2) Iroq;
 - 3) Xuroson;
 - 4) Shimoliy Hindiston;
 - 5) Shimoliy va Sharqiy Eron;
 - 6) Ozarbayjon
 - A) 1, 3, 5
 - B) 1, 4, 6
 - C) 2, 3, 6
 - D) 2, 4, 5
6. Qadimgi Misr janubda qaysi davlat bilan chegaradosh bo'lgan?
 - A) Suriya
 - B) Liviya
 - C) Nubiya
 - D) Mesopotamiya
7. "Koalitsiya" atamasining izohi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
 - A) Umumiy maqsadga erishish uchun ayrim shaxslar, siyosiy partiyalar, davlatlar o'rtasida tuziladigan ittifoq
 - B) Urush harakatlari bo'layotgan hududdan odamlar, muassasalar, korxonalar va boshqalarning urush bo'lmayotgan xavfsiz hududlarga ko'chirilishi
 - C) Urushayotgan tomonlardan birining urush harakatlarini, qurolli qarshilik ko'rsatishni davom ettirishdan voz kechishi
 - D) Majburiy kuchga ega bo'lmagan xalqaro aktning umumiy qoidalari va maqsadlarini ifodalaydigan hujjat
8. Ma'sud G'aznaviy hukmronligi tugagan yilda bo'lib o'tgan voqeani belgilang.
 - A) Ibrohim Bo'ritegin Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oldi.
 - B) Xorazm Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoldi.
 - C) Somoniylar davlati barham topdi.
 - D) Qoraxoniylar davlati barham topdi.
9. Quyidagi qaysi hukmdorlar mil.avv. VI asrda hukmronlik qilgan?
 - 1) Kir II;
 - 2) Doro III;
 - 3) Aleksandr Makedonskiy;
 - 4) Kambiz II
 - A) 2, 3
 - B) 2, 4
 - C) 1, 4
 - D) 1, 3
10. XIII asr boshlarida Angliya qiroli tomonidan imzolangan qaysi hujjatda qirol baronlarni qamamaslik, ularning mol-mulkidan mahrum etmaslik shartlarini qabul qilgan edi?
 - A) "Dahshatli sud kitobi"da
 - B) "Qonunlarning buyuk to'plami"da
 - C) "Mayl End" dasturida
 - D) "Buyuk ozodlik xartiyasi"da
11. XIX asr oxirida Xitoyda "Ixtetuan" ijtimoiy harakati qanday shior ostida faoliyat yuritgan?
 - A) "Yer va ozodlik"
 - B) "Manjur sinlarini haydab chiqaramiz, chet elliklarni yo'qotamiz"
 - C) "Inoqlik va muhabbat"
 - D) "Xitoyda monarxiyani qayta tiklaymiz"

12. XVI asrning oxirigacha qul savdosi bilan faqat ... shug'ullangan.

- A) inglizlar B) portugallar C) fransuzlar
D) nemislar

13. Quyida berilganlardan qaysilarida **davlat-shaxs-voqea** mosligi to'g'ri berilgan?

- 1) Sovet Rossiyasi – V.I.Lenin – mamlakatda "harbiy kommunizm" siyosati o'rnatildi;
2) Chili – Salvador Alyende – mamlakatda davlat to'ntarishini amalga oshirdi;
3) AQSh – Duayt Eyzenxauer – mamlakatda makkartizm avj oldi;
4) Fransiya – Sharl de Goll – Buyuk Britaniya bilan Chexoslovakiyani fashistik Germaniyaga topshirgan Myunxen kelishuvini imzoladi;
5) Xitoy – Den Syaopin – Tyananmin maydonidagi talabalar namoyishi kuch bilan bostirildi
- A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 5


14. Quyidagi qaysi gazeta chiqa boshlagan kun hozirda O'zbekistonda Matbuot va ommaviy axborot xodimlari kuni sifatida nishonlanadi?

- A) "Taraqqiy" B) "Tarjimon" C) "Kengash"
D) "Xurshid"

15. Quyida berilgan qaysi oqim nomi "tanazzulga yuz tutishlik, umidsizlik kayfiyati, hayotdan bezishlikni aks ettiruvchi oqim" ma'nosini bildiradi?

- A) dekadentlik B) realizm
C) impressionizm D) yevrosentrizm

16. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 2, 6 B) 4, 6 C) 1, 5 D) 1, 3

17. Tarixiy-mantiqiy bog'liqlik (ketma-ketlik, moslik) to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) Usmonli davlati – San-Stefano shartnomasining imzolanishi – amir Habibulloxon hukmronligi davri
B) Afg'oniston – Dyurand bitimining imzolanishi – amir Abdurahmon hukmronligi davri
C) Rossiya – Simonoseki sulhining imzolanishi – Nikolay I hukmronligi davri
D) Eron – birinchi parlament (Majlis)ning chaqirilishi – sulton Abdulaziz hukmronligi davri

18. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor mamlakatda o'z mavqeyini mustahkamlab olish maqsadida o'tkazgan moliya islohotiga ko'ra ...

- 1) islomni yangi qabul qilgan kishilar jizyadan ozod etildi; 2) xiroj solig'i miqdorini ikki barobar oshirdi; 3) masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun ikki dirhamdan pul hadya etishni joriy qildi; 4) e'tiqodidan qat'iy nazar yer egasining xiroj to'lashi shart qilib qo'yildi.
- A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3


19. Qaysi voqeadan so'ng qirol Viktor Emmanuil III Benito Mussolinini hukumat boshlig'i etib tayinlagan?

- A) Mamlakatdagi so'l kuchlar Xalq frontini tuzgandan so'ng
B) Mamlakatda Katta fashistik kengash tuzilganidan so'ng
C) Fashistik guruhlarining mashhur Rimga yurishidan so'ng
D) 1923-yil davlat to'ntarishidan so'ng

20. Nuqtalar o'rniga mos keladigan javobni toping. O'rta asrlar:

- 1) Usmonlilar davlati – Mexmet II;
2) Vizantiya imperiyasi – Yustinian I;
3) Muqaddas Rim imperiyasi – ...
- A) Buyuk Alfred B) Asparux C) Filipp IV
D) Otton III

21. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyer-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.



- a) Yevropa davlatlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashib, o'z mustaqilligini saqlab qoldi; b) davlatning tashkil topishi AQShda qulchilikka qarshi kurash bilan bog'liq; c) Kassa o'zini mamlakat imperatori deb e'lon qilgan; d) davlatda G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikadagi ilg'or tartib-qoidalar joriy etilgan; e) Adua yonida bo'lib o'tgan jangda Italiya qo'shinlarini mag'lub etgan; f) Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan.
- A) I-b, e; II-c, d; III-a B) I-b, f; II-c, e; III-d
C) I-c, e; II-b, d; III-a D) I-a, b; II-e, f; III-d

22. AQSh da fuqarolar urushi 1865-yilning aprelda Shimolning g'alabasi bilan tugadi. Natijada ...

- A) Buyuk Britaniya AQSh ning mustaqilligini tan oldi
B) Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi
C) "Gomstedlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi
D) Prezident lavozimi ta'sis etildi

23. O'rta Osiyo davlatlarida ko'plab hunarmandchilik markazlari mavjud bo'lib, ular mahalliy xususiyatlarga ko'ra hunarmandchilikning turli sohalari ixtisoslashgan. Shundan Rishton (a) va Shahrixon (b) shaharlarida hunarmandchilikning qaysi sohalari rivojlangan?

- 1) gilam va kigiz tayyorlash; 2) kulolchilik; 3) pichoqchilik va duradgorlik; 4) qop va arqonlar tayyorlash
A) a-1, b-3 B) a-1, b-4 C) a-2, b-3
D) a-2, b-4

24. 1745-yilda jung'orlar Farg'ona vodiysiga yangidan hujum boshlagan paytda dushmanga qarshi qaysi urug'lar birgalikda kurashdi?

- 1) mang'itlar; 2) minglar; 3) yuzlar; 4) kenagaslar; 5) qipchoqlar; 6) qo'ng'irotlar; 7) qirg'izlar
A) 2, 3, 5, 7 B) 1, 3, 5, 6 C) 2, 4, 6, 7
D) 1, 2, 4, 6

25. 1870-1918-yillardagi AQSh tarixiga oid ma'lumotni aniqlang.

- A) Prezident Taft "Dollar diplomatiyasi" siyosatini e'lon qildi.
B) Shimoliy va janubiy shtatlar o'rtasida fuqarolar urushi boshlandi.
C) Qulchilik bekor qilindi.
D) Prezident Franklin Ruzvelt "Yangi kurs" siyosatini amalga kiritdi.


26. 1830-yilda Parij shahrida boshlangan inqilobning maqsadi nima edi?

- A) respublika tuzumi o'rnatish
B) imperiyani qayta tiklash
C) ishchilarga saylov huquqi berish
D) cheklangan monarxiya tuzumi o'rnatish

27. Quyidagilardan qaysi biri qadimgi Rimda ov xudosi hisoblangan?

- A) Merkuriy B) Morfey C) Diana
D) Venera

28. Xaritada yulduzcha bilan ko'rsatilgan hududda qadimgi davrda vujudga kelgan davlatni toping.



- A) Maurya davlati B) Pekche davlati C) Chjou davlati D) Koguryo davlati

29. V asrda xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud(davlat)ga harbiy yurish qilgan ko'chmanchi qabila sardorini toping.



- A) Mark Krass B) Yustinian I C) Attila D) Buyuk Karl

30. Quyidagi jadvalda voqea va uning natijasi o'zaro **nomuvofiq** bo'lgan qatorlarni aniqlang.

№	Voqea	Natija
1.	IV-VI asrlardagi xalqlarning buyuk ko'chishlari	German qabilalari tomonidan G'arbiy Rim imperiyasining bosib olinishi
2.	900-yilda somoniylar va safforiylar o'rtasida qurolli to'qnashuv yuz berishi	Xurosonning somoniylar qo'liga o'tishi
3.	Shimoliy Amerikada XVIII asr 70-yillaridagi burjua inqilobi	Braziliya Qo'shma Shtatlarining vujudga kelishi
4.	Vilgelm II ning Germaniya taxtiga kelishi	Germaniyada ikkinchi imperiyaning vujudga kelishi
5.	"Uotergeyt ishi"	Richard Niksonning iste'foga chiqishi

- A) 3, 4 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 3, 5